



BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA TEZISLAR TO'PLAMI



2025-YIL 14-OKTABR



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

**“BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASHDA NAZARIY VA
AMALIY YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO
ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

TEZISLAR TO‘PLAMI

2025-yil 14-oktabr

**BOOK OF ABSTRACTS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE “THE THEORETICAL AND PRACTICAL
APPROACHES TO THE ASSESSMENT OF KNOWLEDGE AND
SKILLS”
OCTOBER 14, 2025**

Toshkent 2025

“Bilim va malakalarni baholashda nazariy va amaliy yondashuvlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislar to‘plami, (2025-yil 14-oktabr) – T.: Science and Innovation, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Kozim Ergashov, Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Iqboloy Sobirova, Mamirova Munisa, Asila Khaydaraliyeva

Tahrir hay’ati raisi

A. Baratov	<i>f-m.f.n.</i>
-------------------	-----------------

Tahrir hay’ati a’zolari

M. Ermamatov	<i>f-m.f.n.</i>
A. Sattiyev	<i>PhD (f-m.f. bo’yicha)</i>
A. Normurodov	<i>PhD (f-m.f. bo’yicha)</i>
Q. Amonov	<i>PhD (f-m.f. bo’yicha)</i>

© Bilim va malakalarni baholash agentligi
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining tashkil etilganiga 30 yil to‘lishi munosabati bilan o‘tkazilayotgan ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ta’limda baholash jarayonini ilmiy yondashuvlar asosida takomillashtirish, nazariy va amaliy tajribalarni integratsiya qilish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

Zamon talablari va globallashuv sharoitida ta’lim sifatini baholash tizimining ilmiy asoslangan, shaffof va xalqaro mezonlarga mos bo‘lishi - ta’lim sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir. Shu boisdan, konferensiyada bilim va malakalarni baholashda qo‘llanilayotgan klassik va zamonaviy yondashuvlarning ilmiy jihatlari, ularning amaliyotda qo‘llanish mexanizmlari atroflicha tahlil qilinadi.

Mazkur konferensiya:

- turli mamlakatlarda ta’lim natijalarini baholash sohasida to‘plangan ilg‘or tajribalarni muhokama qilish;
- xalqaro test dasturlari asosidagi yondashuvlar bilan tanishish;
- baholash vositalarini yaratish va takomillashtirishda innovatsion metodlardan foydalanish bo‘yicha ilmiy fikr almashish;
- yosh tadqiqotchilar va amaliyotchilar o‘rtasida bilim va tajriba almashuvini kuchaytirish imkonini yaratadi.

Konferensiyada O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning baholash tizimi sohasidagi yetakchi tashkilotlari, xususan, “Cambridge University Press and Assessment”, “AQA Global Assessment Services”, “Educational Testing Service”, Britaniya Kengashi, Qozog‘iston Respublikasi Milliy test markazi, shuningdek, milliy hamkor tashkilotlar ishtirok etmoqda.

Ushbu tezislar to‘plamida konferensiya ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan tezislar jamlangan bo‘lib, unda ta’limda baholashni zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida rivojlantirishga oid ilg‘or qarashlar, amaliy tavsiyalar va tajribalar o‘z ifodasini topgan.

Ushbu nashr nafaqat ta’lim sohasidagi tadqiqotchilar va amaliyotchilar, o‘quv-uslubiy mutaxassislar va baholash vositalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

M. Karimov

Bilim va malakalarni baholash agentligi direktori

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti v.b. dotsent, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17335215>

Annotatsiya. Maqolada bilim va malakalarni baholashning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Baholashning shaffofligi, samaradorligi hamda innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim tizimini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bilim, malaka, baholash, ta'lim sifati, samaradorlik, innovatsiya, kompetensiya.

Abstract. The article highlights the role and importance of assessing knowledge and skills in improving the quality of education. It analyzes opportunities for developing the education system through transparency, efficiency, and innovative approaches in assessment.

Keywords: knowledge, skills, assessment, quality of education, efficiency, innovation, competence.

1. Kirish.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash va raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu jarayonda bilim va malakalarni baholash tizimi alohida o'rin tutadi. Zero, adolatli va shaffof baholash mexanizmlarisiz ta'lim sifati va samaradorligi to'liq kafolatlanmaydi¹.

Bugungi kunda jahon ta'lim makonida baholash jarayoni oddiy nazorat funksiyasidan chiqib, sifatni boshqarish va ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Baholash tizimi orqali nafaqat o'quvchi yoki talabalar bilim darajasi aniqlanadi, balki ta'lim muassasasining umumiy samaradorligi, pedagoglarning faoliyati va qo'llanilayotgan metodikalarning natijadorligi ham baholanadi.

O'zbekiston uchun ushbu yo'nalish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki bilim va malakalarni baholash orqali ta'lim sifatini oshirish, eng avvalo, yosh avlodning kelajakdagi raqobatbardoshligi, mehnat bozoriga tayyorligi va intellektual salohiyatining o'sishini ta'minlaydi. Shu maqsadda baholash tizimiga innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro amaliyotlarni joriy etish zaruriy vazifa bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqola bilim va malakalarni baholashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni hamda istiqbollari ochib berishga qaratilgan.

2. Adabiyotlar sharhi.

Bilim va malakalarni baholash masalasi ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Ilmiy manbalarda baholash jarayoni nafaqat nazorat vositasi, balki ta'lim sifatini oshirish va ta'lim samaradorligini boshqarishning muhim mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda baholashning adolatli va shaffof bo'lishi o'quvchi va talabalarning motivatsiyasini kuchaytirishi, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan

¹ Hamidov A. (2022). Baholash nazariyasi va ta'lim sifatini boshqarish.

yondashuv ta’lim jarayonida nazariy bilimdan tashqari, amaliy malakalarni ham baholashga imkon berishi bilan ajralib turadi².

Xalqaro adabiyotlarda esa baholash tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida elektron platformalar, onlayn testlar va adaptiv baholash usullarining joriy etilishi ko‘rsatib o‘tiladi. Bu yondashuvlar orqali ta’lim sifati yaxshilanadi, baholash jarayonida xolislik va tezkorlik ta’minlanadi.

Shuningdek, ta’lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash dasturlari — PISA, TIMSS va PIRLS³ — dunyo miqyosida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va mamlakatlarning ta’lim siyosatini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bilim va malakalarni baholash tizimini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishning hal qiluvchi omillaridan biridir. Baholash jarayoni ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlash, o‘quvchi va talabalarning kompetensiyalarini baholash va natijada raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda bilim va malakalarni baholash tizimining ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rganishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Birinchi navbatda, **tizimli tahlil** usuli asosida baholashning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati o‘rganildi. Ushbu yondashuv baholashni nafaqat nazorat mexanizmi, balki ta’lim sifatini boshqarish vositasi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan baholash tizimlari, jumladan, PISA, TIMSS va PIRLS kabi yirik xalqaro dasturlar natijalari milliy tajribalar bilan solishtirildi. Bu usul yordamida O‘zbekiston ta’lim tizimida baholashning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Kontent-tahlil usuli orqali ilmiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan nazariy qarashlar, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlar (YuNESKO, Jahon banki, OECD va boshqalar) tomonidan chop etilgan hisobotlar o‘rganildi. Bu tahlil baholash tizimining nazariy asoslarini aniqlash va mavjud yondashuvlarning ilmiy asoslarini baholashga xizmat qildi.

Amaliy tahlil doirasida esa respublikamizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan baholash tizimidagi islohotlar, elektron platformalar va test texnologiyalarining joriy etilishi o‘rganildi. Bu orqali milliy ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari aniqlab berildi.

Metodologik asos sifatida ta’lim sifatini boshqarish nazariyalari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va innovatsion baholash usullari olindi. Tadqiqot natijalari esa baholashning ta’lim sifatini oshirishdagi real o‘rni va istiqbollari ochib berishga xizmat qiladi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bilim va malakalarni baholash tizimi ta’lim sifatini boshqarishning markaziy elementi hisoblanadi. Baholash jarayoni nafaqat nazorat funksiyasini bajaradi, balki rivojlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Adolatli va shaffof baholash talabalarida mas’uliyat hissini oshiradi⁴, chuqur bilim egallashga undaydi hamda mustaqil o‘qish motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, baholash jarayoni ta’lim muassasalari faoliyatini monitoring qilish va o‘qituvchilar samaradorligini baholash imkonini beradi.

2 European Union. (2022). European Qualifications Framework and Competence-Based Assessment.

3 OECD. (2023). PISA 2022 Results: Learning and Equity in Education.

4 UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report: Assessment and Learning Outcomes.

Baholash natijalarining ishonchliligi test topshiriqlarining sifati bilan uzviy bog‘liqdir. Psixometrik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim topshiriqlar haddan tashqari oson (30–35%) yoki murakkab (10–12%) bo‘lib, umumiy natijaning aniqligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Optimal tarkib 20% oson, 60% o‘rtacha, 20% qiyin topshiriqlarni tashkil etishi lozim. Shuningdek, ajratuvchanlik darajasi past bo‘lgan bandlarni qayta ko‘rib chiqish, DIF tahlili orqali esa til, hudud va gender kesimidagi tenglikni ta‘minlash zarur.

So‘nggi yillarda elektron platformalar, onlayn-testlar va adaptiv baholash tizimlarining joriy etilishi natijasida quyidagi ijobiy natijalar kuzatilmoqda: natijalarni qayta ishlash muddati 10–14 kundan 2–3 kunga qisqardi⁵, inson omiliga bog‘liq xatoliklar 20–25% ga kamaydi, talabalarning kompetensiya profillari chuqurroq tahlil qilina boshladi.

Raqamli tizimlar akademik halollikni ta‘minlashda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, plagiat, shubhali javob naqshlari va boshqa omillarni avtomatik aniqlash imkonini bermiqda.

ISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro dasturlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston o‘quvchilari nazariy bilimlarni egallashda o‘rtacha darajaga erishayotgan bo‘lsa-da, amaliy ko‘nikmalarni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda⁶. Masalan, PISA 2022 natijalariga ko‘ra, o‘zbekistonlik o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi ko‘rsatkichi OECD o‘rtacha darajasidan 15–20 ball past bo‘lgan. Bu holat kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Milliy ta‘lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi: elektron test tizimlari natijalarning shaffofligini oshirdi, reyting tizimi talabalarni raqobatbardoshlikka undadi, analitik hisobotlar orqali ta‘lim muassasalarida sifat monitoringi samarali yo‘lga qo‘yildi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, baholash tizimi ta‘lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Psixometrik intizomni kuchaytirish va DIF tahlilini muntazam o‘tkazish natijalar ishonchliligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar natijalarning tezkor va xolis bo‘lishini ta‘minlaydi. Xalqaro dasturlar tajribasi milliy tizimni kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilan boyitish zarurligini ko‘rsatmoqda. Milliy islohotlar ochiqlik va samaradorlikni oshirdi, biroq amaliy ko‘nikmalarni baholashda chuqurroq metodologik yondashuvlar talab etiladi.

Xulosa.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bilim va malakalarni baholash tizimi ta‘lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omillardan biridir. Baholash jarayoni nafaqat o‘quvchilarning individual natijalarini aniqlash, balki ta‘lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish, pedagoglarning samaradorligini baholash va milliy ta‘lim siyosatini takomillashtirish uchun ham muhim metodologik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Baholash tizimi nazorat vositasidan tashqari ta‘lim sifatini boshqarish va rivojlantirishning strategik mexanizmi hisoblanadi. Psixometrik intizomni kuchaytirish, topshiriqlar sifati va adolatini muntazam tahlil qilish baholash natijalarining ishonchliligini oshiradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijalarni tezkorlik, shaffoflik va xolislik bilan taqdim etishga imkon beradi. Xalqaro dasturlar (PISA, TIMSS, PIRLS) tajribasi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni milliy tizimga tatbiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Milliy baholash

⁵ Karimova N., Abdullayev M. (2021). Elektron baholash tizimlari va ularning ta‘limdagi ahamiyati. // “Ta‘lim va innovatsiyalar” ilmiy jurnali, №3. – B. 77–85.

⁶ OECD. (2023). PISA 2022 Results: Learning and Equity in Education.

tizimidagi islohotlar natijasida ochiqlik va samaradorlik kuchaydi, biroq amaliy ko‘nikmalarni aniqlashda yanada chuqurroq metodik yondashuv talab etiladi.

Baholash tizimida kompetensiyaga asoslangan metodologiyalarni keng joriy etish, amaliy ko‘nikmalarni aniqlashga qaratilgan topshiriqlar ulushini oshirish. Bandlar bankini psixometrik mezonlarga asoslangan holda muntazam yangilash, DIF nazoratini doimiy ravishda amalga oshirish. Elektron platformalarni yanada takomillashtirish, adaptiv baholash tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish. Natijalarni chiqarish tezligini qisqartirish va hisobotlarni avtomatlashtirish orqali baholash jarayonining samaradorligini oshirish. Baholash tizimini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish, milliy reyting va akkreditatsiya jarayonlarida asosiy indikator sifatida foydalanish⁷. O‘qituvchilar va mutaxassislar uchun baholash metodologiyasi, testologiya va raqamli texnologiyalar bo‘yicha muntazam malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Umuman olganda, bilim va malakalarni baholash tizimining takomillashuvi ta’lim sifatini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va mamlakatning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha metodik tavsiyalar*. – Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti, 156 b.
2. UNESCO. (2023). *Global Education Monitoring Report: Assessment and Learning Outcomes*. – Paris: UNESCO Publishing, 284 p.
3. OECD. (2023). *PISA 2022 Results: Learning and Equity in Education*. – Paris: OECD Publishing, 352 p.
4. European Union. (2022). *European Qualifications Framework and Competence-Based Assessment*. – Brussels: EU Commission Report, 198 p.
5. Hamidov A. (2022). *Baholash nazariyasi va ta’lim sifatini boshqarish*. – Toshkent: “Fan va taraqqiyot” nashriyoti, 220 b.
6. Karimova N., Abdullayev M. (2021). *Elektron baholash tizimlari va ularning ta’limdagi ahamiyati*. // “Ta’lim va innovatsiyalar” ilmiy jurnali, №3. – B. 77–85.

7 O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha metodik tavsiyalar*.